

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A. Sharafiddinov	
Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi (XIX asrning ikkinchi yarmi).....	203
M.M. Temirova	
O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari	208
Q. Sulaymonov	
Iqtisodiyotni globallashtirishda informatsiyaning o'rnini	213
X.E. Xodjamberdiyev	
Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri.....	216
A.A. Xakimov, O. Sh. Ubaydullayev	
Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi (Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida).....	222
M.M. Abdullayeva	
Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi (Namangan viloyati misolida)	226
F. Abdurasulova	
Buxoro amirligida diniy ta'limning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukmronligi davrida rivojlanishi	232
A.A. Aloxunov	
Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati	236
M.B. Siddiqov	
Ikkinchi jahon urushi yillarida pensiya tizimi	241
G.A. Abdug'aniyeva	
Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi	247
N.V. Karimova	
Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi.....	252

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.G. Sabirdinov	
Xudoyberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati	257
G.V. Abdullayeva	
Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi.....	260
S.Q. Mamatova	
Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari.....	267
N.Y. O'roqova	
Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini	271
D.A. Qahharova	
Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili.....	280
S.A. Xaqnazarova	
An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar	287
M. Islomova	
Hayot haqiqati va badiiy tafakkur	290
A.A. Qayumov, D.G'. Gafurova	
Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida).....	294
Y.B. Eshmatova	
Turk hikoyachiligida an'ana va yangilanishlar sintezi.....	299
Д. О. Турдалиев	
Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации	303
F.B. Sultonqulova	
Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiati	306
G.A. Jurayeva	
Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar.....	310



UO'K: 821.511.131.1

HAYOT HAQIQATI VA BADIY TAFAKKUR

РЕАЛЬНОСТЬ ЖИЗНИ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МЫШЛЕНИЕ

REALITY OF LIFE AND ARTISTIC THINKING

Islomova Mohira 

Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrası doktoranti

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy tafakkurning turli bosqichlarida qushlar obrazining turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'lishi, g'oya va falsafiy qarashlar ifodasida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lganligi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В статье рассматривается, как образ птиц проявляется в различных формах и видах на разных этапах социального мышления, а также обсуждается его особое значение в выражении идей и философских взглядов.

Abstract

The article discusses how the image of birds manifests in various forms and representations at different stages of social thought, and its significant role in expressing ideas and philosophical views.

Kalit so'zlar: Shaxs, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, maishiy turmush, qush obrazi, g'oya, falsafa, muhit, tafakkur, badiiy ijod, milliylik, mahalliy kolorit, umumbashariylik.

Ключевые слова: Человек, природа, общество, общественная жизнь, бытовой быт, образ птицы, идея, философия, окружающая среда, мышление, художественное творчество, национальность, местный колорит, универсальность.

Key words: Person, nature, society, social life, domestic life, image of a bird, idea, philosophy, environment, thinking, artistic creation, nationality, local color, universality.

KIRISH

Shaxsning va muhit bilan munosabati qadim-qadimdan ijtimoiy hayotimizda muhim o'rin tutib kelgan. Bizgacha yetib kelgan folklor namunalari, ayniqsa, ertak va maqollarda, latifa hamda matallarda muayyan shaxs obrazi xalq donishmandligi, zukkoligini aks ettirishda qo'l kelgan. Masalan, qushlar obrazlari vositasida xalq qahramonlari o'z salohiyatlarini namoyish etishlarida, ommaning dard-tashvishlarini baralla aytishlarida muhit bilan munosabatlari muayyan sahna rolini o'tagan deyish mumkin. Odamlar qadim zamonlardan buyon qushlar timsolidagi hikmatlar orqali hamda o'z adabiy qahramonlari tilidan nosoz zamona yoki noqis tuzumga zimdan bo'lsa-da, o'z munosabatlarini bildirib kelganlar.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA METODLAR

Kabutar timsolida tinchlik ramzi anglanishi, kalxat obrazi orqali bosqinchlik urushi olib boruvchilarni nazarda tutilishi ham qushlar obrazi ijtimoiy hayotimiz va falsafiy tafakkurimizdan mustahkam o'rin olganligidan dalolatdir.

Xalq ertaklarining aksariyatida ham qushlar obrazlari vositasida shaxs va jamiyat munosabatlari mavzusini yoritish yetakchi o'rin tutadi. Chunki voqelik turli toifa kishilar, xilma-xil xarakterlar, betakror voqea-hodisalarni o'zida mujassamlashtirgan maskan bo'lib, badiiy asar personajlarining hayotiyiligini, voqea-hodisalar haqqoniyligini ta'minlaydigan muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Qushlar timsoli orqali badiiy ifodasini topgan shaxs shakllanishi jarayonining inson o'zligini anglashi, moddiy turmushining yaxshilanishi, ma'naviy olamining boyishi, voqelikka munosabat singari muammolarning badiiy yechimi, odamlar ruhiyatidagi xilma-xil evrilishlarni tadqiq etish yuqoridagi asarlarning g'oyaviy-falsafiy maqsadiga aylangan. Demak, qushlar obrazlari orqali o'rta tashlangan shaxs tushunchasi, uning voqelik bilan munosabatlari, hodisalarning inson

ADABIYOTSHUNOSLIK

ma'naviyatiga ta'siri masalalari insoniyat ongida juda qadimdan shakllangan, milliy hamda umumbashariy qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida yashab kelgan. [3.126]

Badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator muammolar umumestetik xarakterga ega. San'atning barcha turlariga taaalluqli bu muammolarni adabiyotshunoslik badiiy adabiyot nuqtai nazaridan, badiiy adabiyot bilan bog'lab va uning misolida o'rganadi.

Shaxs va jamiyat, inson va hayvonot olami munosabatlari qadim-qadimdan insoniyatning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy hayotida ham muhim rol o'ynab kelmoqda. Har bir millat uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi. Uning shakllanishi o'ziga xos tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kechadi. Jamiyat vakili bo'lgan shaxsning shakllanishiga esa u mansub bo'lgan millatning xo'jalik yumushlari, maishiy turmushi, ijtimoiy-madaniy muhitgina emas, umuman, butun ijtimoiy munosabatlar, jamiyat va tabiat majmuasi ta'sir ko'rsatadi. Inson ma'naviy qiyofasini esa ana shu ijtimoiy munosabatlar belgilaydi. Badiiy asarda muayyan xalq ruhini, xohish-istagi, milliy mentalitetini haqqoniy ifodalay olish darajasi esa so'z san'atkorining ko'p jihatdan ana shu xalq bilan qay darajada ruhan yaqinligi bilan belgilanadi. Shundan kelib chiqib, so'z san'atkorlari o'z g'oyalari, xohish-istaklarini badiiy ifodalash uchun turli usul va vositalarga murojaat qiladilar. Bunday usul hamda vositalardan eng qadimiy va ta'sirchanlaridan biri allegoriyadir. [1.210]

Allegoriya (yunoncha – o'zgacha ifodalash, kinoya, qochirim) badiiy tasvir, obrazlilik turi; mavxum tushuncha yoki g'oyalarni muayyan narsa, voqea va xodisa orkali ifodalash. Masalan: «to'ti» atamasining «gapdon», «bulbul» so'zining «xushovoz» ma'no ifodalari bo'lsa, «bo'ri», «tulki» so'zlaridan «yomonlik», «yovuzlik», «ayyorlik»ni ifodalovchi salbiy ma'nolar ifodalanadi.

Allegoriyadan farqlanuvchi ramzda esa so'z bilan obraz orasidagi aloqa o'xshashlik yoki uyg'unlikka asoslanadi (masalan: qalb-sevgi). Sharq adabiyoti, O'rta asrlar G'arb adabiyotida barokko, klasisizm ruhida san'atda ramziylik vositasida yaratilgan obrazlar ko'plab uchraydi (masalan: adliya sohasida «adolat» tarozu ko'tarib turgan ayol shaklida ifodalanadi). Ramz ham allegoriya singari masal va ertaklarning ayrim turlarida keng qo'llaniladi.

Majoz ham asarning badiiy-estetik qimmatni, ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladigan vositalardan. Majoz allegoriya singari adabiy-badiiy usul yoki obrazli ifodaning turlaridan biridir. Majoz yordamida ba'zi mavhum tushuncha yoki mulohazalarni aniq bir obraz vositasida ifoda etiladi. Bu usul orqali ikki tushuncha orasidagi yaqinlikka asoslanib, yangi shartli ifoda yaratiladi. Ma'naviy qadriyatlarni (mas. haqiqat, muhabbat, vijdon, imon kabi) umumiy tushunchalar bilan birga muayyan tipik hodisalar, xarakterlar, mifologik personajlar, ba'zan biror aniq shaxslar vositasida obrazli gavdalantiriladi. Bunda ma'no birlamchi, obraz esa ikkilamchi o'rinda bo'ladi. Chunki obrazda oldindan nazarda tutiladigan fikr va tushunchalar qayd etiladi. Shuning uchun ham ba'zan majoziy obraz oddiy obrazdan farqli ravishda maxsus sharh yoki talqinni taqozo etishi mumkin.

Sharq folklori va adabiyoti namunalarida majozning turi shakllari ko'plab uchraydi. Ayniqsa Jaloliddin Rumiy, Fariddin Attor, Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil ijodida o'ta shartli madaniy va ramziy obrazlar mavjud bo'lib ularning keng miqyosli mazmuni predmet obrazga sig'maydi. Ko'pma'nolilik va falsafiy teranlikka, umumbashariy g'oyalar va masalalarga boylik hamda badiiy yuksaklik ko'plab mashhur asarlarda ana shunday majoziy obrazlar vositasida erishilgan.

NATIJA VA MUXOKAMA

G'arbda Feniks, Sharqda Qaqnus nomi bilan yuritiluvchi afsonaviy qush, Slavyanlarda Jarptisa, Turon va eronda Humo deb yuritiluvchi baxt-saodat timsoli bo'lgan parrandalar, ajdodlarimiz ilohiylashtirgan Semurg' (ba'zan Anqo deb ham yuritiladi) shular jumlasidandir. «Kenja botir», «Gulqahqah», «Qora xolli ot» singari o'zbek xalq ertaklarida turli xaloskor va qahramonga homiylik qiluvchi qushlar haqidagi lavhalar uchraydi. Odamlar orasida davlat qushi, baxt qushi, bulbuligo'yo shakllarida mashhur bo'lgan Simurg' obrazi Sharq adabiyotida ilk bor Firdavsiyning «Shohnoma»sida paydo bo'ldi. Abu Ali ibn Sinoning «Qushlar risolasi» kitobida nomi keltirilmagan bo'lsa-da, qushlar podshosi deyilganda Simurg' nazarda tutiladi. Qadimgi Sharqda afsona, ertak va dostonlarda bosh qahramonga homiylik qiluvchi afsonaviy qush – Anqo Imom G'azzoliyning «Risalat-ut tayr» asarida ramziy-majoziy ma'noda Oллоhning tasavvufiy timsoli sifatida gavdalantiriladi.

Insoniyat tafakkuri tadrijida olamni, borliqni anglash jarayoni asta-sekin kechgan. Chunki olamni mantiqiy tafakkur orqali bilishdan avval insonda obrazli tafakkur shakllangan. Qadimgi ajdodlarimiz bir predmet yoki bir voqeani shunga o'xshash predmet yo voqeaga taqqoslash orqali olamni anglaganlar. Shu tariqa obrazlar vositasida olamni, borliqni idrok etish bilan san'at asarlari yaratilgan.

Hayot tajribalari va malakalariga ega bo'lgan ajdodlarning kelgusi avlodlarga o'z hayotlari misolida ibratli pand, xulosalarini obrazlar vositasida, qiyoslar orqali yetkazishga ehtiyoj juda qadimdan mavjud bo'lgan. Ana shu qiyos va o'xshatishlarda qushlar obrazidan ham samarali foydalanilgan.

Qadimgi davr namunalaridan bizgacha yetib kelgan ikkita masalda ham qushlar obrazi ishtirok etgan. Bu Sofoklning "Ayanta"sidagi Tevkr va Menelay haqidagi voqealardir. Yunon adabiyotida Gesiod ijodida ham bunga namuna ko'ramiz. Uning "Mehnat va kunlar" asarida bulbul va burgut haqidagi masal keltirilgan bo'lib, undagi nutq shafqatsiz va adolatsiz hukmdorlarga qaratilgan. Qushlar majoziy ma'no ifodalaydi, ular asosiy personaj sifatida alohida syujetni rivojlantiradi, burgut tilidan ibratli so'zlar aytiladi.

Qushlar obrazi keyingi bosqichlarda agiografik, ya'ni diniy-falsafiy mazmun tashishga ham yo'naltirilgan. Ayniqsa, qushlar va jonivorlar tilini biladigan Sulaymon payg'ambar haqidagi rivoyat va hikoyatlarda, tabiiyki, qushlar obraziga juda ko'p murojaat qilingan.

Qushlar yoki jonivorlarning ko'rinishi, xatti-harakatidagi ayrim g'ayritabiiylik insonda turlicha fikr-mushohadalar uyg'otadi. Odam buni o'zicha talqin qiladi hamda ta'limiy-tarbiyaviy xulosa chiqarishga harakat qiladi. Turli syujetlarda Boyo'g'li obrazining uchrashi esa uning yashash tarzidagi g'ayritabiiylikdir. Chunki u boshqa qushlar singari kunduzi emas, tungi hayot kechirish tarziga moslashgan. Uning g'ayritabiiy ko'rinishi, ko'zlarining xuddi insonniki singari boqishi ham u haqda hurmat bilan munosabat bildirilishiga sabab bo'ladi.

Yana bir hikoyatda Boyqush tilidan dunyoning o'tkinchiligiga ishora qilinadi, g'aflatda yashamaslikka undaladi. Boyqush Sulaymon alayhissalomning yoziga kelgan ekan, shoh va payg'ambar undan so'rabdi: "Ey boyqush nega biror honadonga qo'nsang uzoq nola qilasan? Boyqush: "Odamzot imtihonda ekan, bunchalar bemaol uxlayapti daganimdir." Sulaymon alayhissalom savolda davom etdilar: "Faryodingda yana nimalar demoqchi bo'lasan?" Ey g'ofillar, safar muqarrar, safarga tayyor turing deyman." Shunda Sulaymon debdilar: "insonga boyqushchalik to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi qush yo'q, nega odamzot boyqushni nohush sanaydi."

Inson o'z yoshiga yarasha o'ylashi, so'ylashi, harakat qilmog'i lozimligi ko'p manbalarda qayta-qayta eslatiladi. Xalqimizda "Aql yoshda emas, boshda" degan hikmatli naql ham bor. Quyidagi agiografik xarakterdagi hikoyat ana shu mazmunni o'zida aks ettirgan. Sulaymon alayhissalomning davrida bir qush ko'lga suv ichgani boripti, ammo u yerda bolalar o'ynashayotgan ekan, buni ko'rgan qush, bolalar tarqalguncha kutib turay, yana ulardan menga biror zahmat yetmasin, ular ketsa suv ichib, chanqog'imni qoldiraman, deb o'ylabdi. Bolalar ketishi bilan suv yoniga uzun soqolli, viqorli bir chol kelibdi. Qush o'zicha debdi, bunday soqolli qariyalardan menga zahmat yetmasa kerak, bunday soqollar faqat obid va zohidlarda bo'ladi. Qush shunday deb suv ichgani tushgan ekan haligi chol unga qarab tosh otibdi. Tosh qushning bir ko'zini ko'r qildi, bechora qush choldan arz qilgani Sulaymon alayhissalomning oldiga kelibdi. U esa darhol cholni topib kelishni buyurdi va uning ko'zini o'yib olishga hukm qildi. Shunda jabrlangan qush uni to'xtatib, ey Allohning payg'ambari, uning ko'ziga tegmang, ko'zlarining aybi yo'q, uning soqolini olib tashlang, Allohga qasamki, unga ishonishimga, ehtiyotkorlikni yo'qotishimga uning soqoli sababchi. Shundan so'ng Sulaymon cholning soqolini qirib, qo'yib yubordi. Qissadan hissa shuki, deyiladi rivoyat so'ngida, qalbi egri bo'lgan odamning kimligini tashqi ko'rinishiga qarab bilib bo'lmaydi. Aksincha, tashqi ko'rinishidan taqvodorlik va xudojo'ylik bilinmasa-da, Allohdan qo'rqadigan qalb qanday go'zal!

Demak, agiografik asarlarda qushlar obrazining ishtirok etishi badiiy-estetik ta'sirchanlikni kuchaytiradi, g'oyaviy maqsadning o'quvchi yoki tinglovchi qalbiga tez yetib borishini ta'minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, insoniyat tafakkurining turli bosqichlarida qushlar obrazi olam va odam, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlarni badiiy idrok etish uchun goh allegorik, goh majoziy ko'rinishlarda namoyon bo'lgan. Bora-bora diniy-falsafiy, dunyoviy-hayotiy syujetlarda ham o'ziga xos ko'rinishlar kasb etgan. Eng muhimi, tarixiy voqelikdagi hodisalarga munosabat bildirish, ijtimoiy

ADABIYOTSHUNOSLIK

hayotdagi inson faoliyatini badiiy aks ettirish, shaxsning jamiyatdagi roli va o'rnini to'g'ri belgilash singari omillar aksariyat hollarda allegorik, ba'zan esa majoziy ko'rinishlarda o'z ifodasini topgan. Ko'rinadiki, bu boradagi tadqiqotlar izchillik, tizimlilik va xolislikni talab etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotel. Poetika. Toshkent. 1980
2. Adabiy turlar va janrlar. 2 jildlik. 1 j. – Toshkent. 1990.
3. Jo'rayev M. Mif, folklor, adabiyot. – Toshkent. 2006.
4. Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshkent. 1959
5. Ishoqov F. "Zarbulmasal" – xalqchil nasrning yuksak namunasi. O'zbek nasri tarixidan. – Toshkent, 1982.
6. Kalila va Dimna. Tarjimon S.G'aniyeva. Toshkent. 1966
7. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. 2005.